

MAKTAB O'QUVCHILARINING DARSLARGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Turg'unova Halimaxon Abdullajon qizi

Farg'ona viloyati Buvayda tumani 26-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilarining ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishning psixologik omillari tahlil qilinadi. O'quv motivatsiyasi, ichki va tashqi rag'batlantirish mexanizmlari, o'qituvchi va oila hamkorligi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda emotsional muhitning o'quv faoliyatiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarda barqaror o'quv motivini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: o'quv motivatsiyasi, psixologik muhit, ichki motiv, tashqi rag'bat, o'smirlik davri, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, emotsional barqarorlik, pedagogik hamkorlik, kognitiv jarayonlar.

KIRISH

Maktab o'quvchilarining darslarga bo'lgan qiziqishi ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Qiziqish mavjud bo'lgan joyda bilimni o'zlashtirish jarayoni samarali va barqaror kechadi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, qiziqish – bu shaxsning muayyan faoliyatga nisbatan ijobiy munosabati, ichki ehtiyoji va intilishidir. O'quvchida darsga nisbatan qiziqish shakllanmasa, o'zlashtirish jarayoni majburiy tus oladi va natija past bo'ladi.

O'quv motivatsiyasi ichki va tashqi omillar asosida shakllanadi. Ichki motivatsiya o'quvchining bilimga chanqoqligi, yangilikni bilishga bo'lgan ehtiyoji, o'zini namoyon etish istagi bilan bog'liq. Tashqi motivatsiya esa baho, rag'bat, maqtov yoki jazodan qochish kabi omillar bilan belgilanadi. Tadqiqotlarda ichki motivatsiyaning ustuvorligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Bu borada mashhur psixolog Abraham Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi o'quvchining o'zini namoyon qilish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga intilishi yuqori bosqichdagi ehtiyoj ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi o'quvchining imkoniyatlarini to'g'ri baholab, unga mos vazifalar berish zarurligini asoslaydi. Agar topshiriq o'quvchi uchun haddan tashqari qiyin yoki aksincha juda oson bo'lsa, qiziqish susayadi. Demak, ta'lim jarayonida individual yondashuv muhimdir.

Dars jarayonidagi emotsional muhit ham o'quvchining qiziqishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Samimiy, qo'llab-quvvatlovchi va adolatli muhitda o'quvchi o'zini erkin his qiladi. Qo'rqitish, keskin tanqid yoki solishtirish esa ichki motivatsiyani

pasaytiradi. O'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi, ijodkorligi va innovatsion metodlardan foydalanishi darslarni qiziqarli qiladi.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish ham muhim omildir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin elementlari, vizual materiallar va rag'batlantirish samarali bo'lsa, o'smirlik davrida mustaqillik, fikr bildirish imkoniyati va bahs-munozara usullari qiziqishni oshiradi. O'smirlar o'z fikrining qadrlanishini his qilganda, ta'lim jarayonida faolroq ishtirok etadilar.

Oilaviy muhit ham o'quv motivatsiyasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ota-onaning ta'limga bo'lgan munosabati, farzandning yutuqlarini qo'llab-quvvatlashi va muvaffaqiyatsizlikda dalda berishi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Doimiy tanqid va bosim esa aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida o'quvchilarning diqqatini jamlash tobora murakkablashib bormoqda. Shu bois darslarda interaktiv metodlar, raqamli vositalar, guruhli ishlash usullari va loyihaviy faoliyatdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilish uning qiziqishini oshiradi.

Psixologik jihatdan qaraganda, muvaffaqiyat hissi qiziqishni mustahkamlaydi. Kichik yutuqlarni e'tirof etish, o'quvchining kuchli tomonlarini aniqlash va rivojlantirish muhimdir. Har bir bola o'z qobiliyatiga ega ekanligini his qilsa, darsga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

O'quvchilarni darsga "qaytarish" uchun avvalo ularni darsdan "olib ketgan" muammoni aniqlab olishimiz zarur. Ya'ni o'quvchi nima uchun darsga qiziqmayapti degan savolga javobimiz bo'lishi kerak. Buning uchun anketa, so'rovнома (istasangiz, anonim tarzda) o'tkazish, ular bilan alohida suhbatlashish, dars jarayonini kuzatish kabi usullardan foydalansak bo'ladi. Har bir usul haqida qisqacha ma'lumot beramiz: O'quvchilar bilan dars jarayoni, undagi kamchilik va yutuqlar haqida ochiq muloqot qilish muammolarni aniqlashda yaxshi samara beradi. Muloqotni savol-javob, ya'ni har bir o'quvchidan mulohaza tinglash yoki turli mashg'ulotlar ko'rinishida o'tkazish mumkin.

O'quvchilarning darsga qiziqmasligiga sabablar bisyor. Quyida ulardan eng keng tarqalgan hamda asosiy sabab sifatida ko'rsatiladiganlarini ko'rib chiqamiz.

Motivatsiya yetishmasligi. Har qanday jarayon amalga oshishi uchun motivatsiya muhim. Garchi ta'lim olish insonning muhim ehtiyojlaridan biri bo'lsa-da, bunga ham inson o'zida motivatsiya topa olishi kerak. Ko'pincha o'quvchilar darsda o'rganayotgan mavzularining amaliy foydasini tushuna olmaydi. Kelajakda bu bilimlardan qanday foydalanish mumkinligini tasavvur qilolmaydi. Shu sabablarga ko'ra, ular darslarni keraksiz deb hisoblay boshlaydi va o'rganishga motivatsiyasi so'nadi. O'qituvchilar o'zlari berayotgan bilimning muhim va amalda kerakli ekanini tushuntirib berishi motivatsiyani uyg'otishi mumkin.

Mavzularning murakkabligi. O'quv dasturi yoki dars materialining murakkabligi,

bolaga nisbatan tushunarsiz tarzda tayyorlangani o'quvchini darsdan uzoqlashtiradi. Ayrim o'quvchilar mavzuni bir necha marta tushunmagandan keyin o'zining muvaffaqiyatsiz ekanini tan oladi va darslarga bo'lgan qiziqishi pasayadi. Baribir o'rgana olmayman degan qarash shakllanib qoladi.

Shaxsiy muammolari. O'quvchining oilasida, do'stlari davrasida, maktabdan tashqari faoliyatida duch keladigan stresslari, muammolari ta'lim jarayoniga e'tibor qaratishga to'sqinlik qilishi mumkin. Bunday hollarda uning ruhiy holatini yaxshilash uchun psixolog yordami zarur bo'ladi.

O'qituvchining dars o'tish uslubi. Darsning qanday tashkil etilishi ham o'quvchilarning qiziqishiga eng ko'p ta'sir o'tkazuvchi omillardandir. Agar o'qituvchi darsni monoton, bir usulga tayanib qolgan holda o'tsa, o'quvchilar bir necha darsdan keyin zerikadi. Darslarning qiziqarli, interaktiv va turfa metodlar bilan o'tilishi (bir darsning ichida ko'plab metod emas, har bir dars uchun alohida metod, almashib qo'llash uchun) o'quvchilar qiziqishini ushlab turadi.

Texnologiyaga bog'lanmaslik. Bugungi kun bolalari texnologiyalar ichida katta bo'lmoqda. Agar darslaringizda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasangiz, o'quvchilarning qiziqishini ushlab turish qiyinlashadi. Shu sababli turli interaktiv vositalar, ta'lim platformalari, video, audio resurslardan foydalanib, darsni boyitish haqida o'ylashingiz zarur. Ulardan har bir darsingizda foydalanmasligingiz mumkin, ora-orada qo'llash ham o'quvchilarni qiziqishda ushlab tura oladi.

O'qituvchiga nisbatan simpatianing yo'qligi. Agar o'quvchi o'qituvchini yoqtirmasa, adolatsiz deb hisoblasa, uning darsiga ham qiziqmay qo'yadi. Ya'ni o'quvchining darsga bo'lgan munosabati uning o'qituvchiga bo'lgan munosabati asosida shakllanadi. Shuning uchun ham falon ustozning darsiga hammamiz kelardik, jim o'tirib tinglardik degan gaplarni ko'p eshitamiz. Bunda o'qituvchining qattiqqo'lligi emas, adolatli ekani, o'quvchilarning fikriga qiziqishi va ular bilan do'st sifatida gaplasha olishi, ularga maktab hayotidan tashqari masalalarda ham foydali maslahatlar bera olishi asosiy o'rinda turadi.

Tashqi omillar. Telefon, ijtimoiy tarmoq, videoo'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini "o'ldir"ishi bor gap. Chunki ular chalg'ituvchi xususiyatga ega, o'quvchi fokusni darsga qarata olmaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar qayerdadir ishlashi, tuni bilan uxlamasdan turli boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi mumkin. Bular o'quvchining charchashiga olib keladi va darslarda befarq o'tirishiga sabab bo'ladi. Bunday holat kuzatilganda maktab ma'muriyati, ota-ona bilan hamkorlikda yechim izlash eng to'g'ri yo'l.

O'quvchilardagi muammolarni, darsga qiziqmaslik sabablarini o'rganib chiqqanimizdan keyin ularga qarshi choralar qo'llashimiz zarur. Yuqorida o'quvchining darsga qiziqmasligiga olib keluvchi asosiy omillarni sanadik. Shuni hisobga olish kerakki, odatda bu omillar yakka-yakka holda emas, aralash bo'lib

uchraydi. Bir o'quvchida omillarning bir nechitasi to'plangan bo'ladi. Shuning uchun ham ularni bartaraf etish haqida so'z ketganda har bir omilga alohida yechim izlash to'g'ri yo'l emas.

Ta'lim jarayonida bolaning o'qishga bo'lgan ichki rag'batini uyg'otish - motivatsiya muhim ahamiyatga ega. Motivatsiya o'quvchiga g'ayrat beradigan, xatti-harakatini boshqaradigan va qo'llab-quvvatlaydigan holat sifatida tavsiflanadi. Motivatsiya holati maqsadlarni o'z ichiga oladi va faollikni talab qiladi. Maqsadlar esa harakatni yuzaga keltiradi hamda o'quvchi o'z qiziqishlarini aniqlab olishiga xizmat qiladi. Shu tariqa uzoq vaqt muayyan mashg'ulot bilan band bo'lish boladagi qat'iyatni shakllantiradi.

XXI asrga kelib ta'lim berishda pedagoglar o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishning yangidan-yangi yo'llarini o'ylab topdilar. Jumladan, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi "Loyiha asosida o'rganish", interaktiv o'quv muhitini ta'minlovchi "Moslashtirilgan sinfxona", "Kichik guruhlarda ishlash" kabi pedagogik yondashuvlar. Shular qatoriga XXI asrda yangi o'qitish usuli ham qo'shildi - "gamification" yoki raqamli o'yinlar orqali o'qitish. Dars jarayonida mavzuni tushuntirishda o'yinlardan shu vaqtgacha ham foydalanib kelingan. Misol uchun, harakatda yashiringan so'zni topish- "Iztopar", "Quruvchi", "Sirli so'z", "Notog'ri jumla" kabi sinf o'yinlari. Tadqiqotlarga ko'ra, o'yinga asoslangan ta'lim berish jarayoni o'quvchi diqqatini o'ziga bog'lab, bolalarda ko'nikma va malakani rivojlantiradi.

O'quvchining o'zlashtirishini tushirib yuboradigan omillardan biri o'zining qobiliyatsizligidan qo'rqishidir. Gemifikatsiya metodi o'quvchilarning qobiliyatsizlik qo'rquvini kamaytiradi. Muvaffaqiyatsizlik o'rganishning ajralmas qismidir, ammo ko'pincha sinfxonasida muvaffaqiyatsizlik o'quvchi uchun sharmandalik va xijolat manbai bo'lib qoladi. O'n yoshli bolaning bir necha marta muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa ham, videoo'yinlarni qayta-qayta o'ynayotganiga guvoh bo'lgan bo'lsangiz, demak o'yinlar o'rganishdagi muvaffaqiyatsizlik oqibatida yuzaga keladigan qo'rquv hamda uyalish hissini o'zgartiradi. Bolalar o'rganish jarayonida nafaqat muvaffaqiyatsizlikni qabul qilib, yana harakat qiladilar, balki qiziqishni o'rganishning bir qismiga aylantiradilar. Gemifikatsiyadagi yana bir jihat - o'yinning darajalarga bo'linishi va keyingi bosqich o'tish jarayoni, shuningdek, keyingi bosqichga ularni nima kutib turganiga nisbatan qiziqish ham o'rganuvchini olg'a chorlaydi.

XULOSA

Maktab o'quvchilarining darslarga bo'lgan qiziqishini oshirish murakkab, ammo hal etilishi mumkin bo'lgan psixologik jarayondir. Ichki motivatsiyani shakllantirish, qulay emotsional muhit yaratish, individual yondashuvni ta'minlash va oila bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish

mumkin. Qiziqish bilan o'rganilgan bilim esa mustahkam va uzoq muddatli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.I. Kuramshin, Periodicheskiy zakon / D.I. Mendeleyev - M.: AST, 2018
2. Russler, N.: Gamification in inklusivem E-Learning. Master Thesis. Humboldt-University Berlin.
3. <https://www.realinfluencers.es/en/2019/05/09/8-21st-century-methodologies/>
4. Internet materiallari
5. Ziyo.net